

**Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat boshqaruvi kafedrasi tomonidan o‘tkaziladigan
“Davlat boshqaruvini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmonida nazarda tutilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruvi kafedrasi tomonidan 29-noyabr kuni “Davlat boshqaruvini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkaziladi.

Konferensiya o‘z ishini **2023-yil 29-noyabr soat 10:00 da TDYU 3-bino 221-bino** majlislar zalida boshlaydi.

Konferensiyaga maqolalar o‘zbek, rus va ingliz tillarida, **1-noyabrdan 27-noyabrga qadar** Telegram’dagi [@davlatboshqaruvikonferensiya](https://t.me/davlatboshqaruvikonferensiya) elektron manzilida qabul qilinadi.

Materiallar alohida to‘plam sifatida nashr qilish ko‘zda tutilgan.

Maqolalar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha qabul qilinadi:

- Davlat boshqaruvi;
- Global va milliy iqtisodiyot;
- Siyosiy jarayonlar va xalqaro munosabatlар.

Maqolalar quyidagi tartibda qabul qilinadi:

Maqola hajmi 4 - 8 sahifa oralig‘ida, Times New Roman shrifti, 14 o‘lchovda, 1,5 qator oralig‘ida, chap tomondan 3 sm, yuqori va past tomondan 2 sm, o‘ng tomondan 1,5 sm qoldirilgan holatda A4 formatli standart qog‘ozda Word 2000-2016 dasturi, doc yoki docx formatida bo‘lishi lozim.

Maqola www.antiplag.uz saytining qisqacha hisoboti bilan qabul qilinadi. Originallik kamida 70% bo‘lishi kerak.

Maqola rasmiylashtirilganda bosh harflarda maqola mavzusi, keyingi satrda muallif(lar)ning ismi, sharifi, otasining ismi, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, ish joyi va lavozimi to‘liq yoziladi. Keyin o‘zbek, rus va ingliz tillarida annotatsiya va kalit so‘zlar keltiriladi. Annotatsiya 2-3 jumladan iborat bo‘lib, o‘zida maqola mazmunini ifodalashi lozim. Kalit so‘zlar mavzuni ochib beradigan 10 dan oshmagan so‘z va iboralardan iborat bo‘lishi kerak. **Maqolada kirish, mavzuning dolzarbliji va hozirgi holati, tajriba qismi (tadqiqotni amalga oshirish), olingan natijalar tahlili, taklifi va xulosa qismlari bo‘lishi talab qilinadi.** Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati maqola oxirida keltiriladi, bunda matnda adabiyotlarga havola kvadrat qavslarda ko‘rsatiladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati amaldagi davlat standartlari asosida rasmiylashtiriladi.

Konferensiyada o‘z materiallari bilan ilmiy tadqiqotchilar, soha mutaxassislari va talabalar ishtirok etishi mumkin.